

OMMAVIY OFERTA
«5ta Niva Legend» YUTUQLI O'YININI o'tkazish to'g'risida

Joylashtirilgan sana: 20.10.2025 y.

Ushbu ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda - Oferta) Tashkilotchi sifatida «TECHNICS SERVICES POWER» MChJ (STIR: 309 546 570, keyingi o'rinlarda – Tashkilotchi) tomonidan o'tkaziladigan «5ta Niva Legend» yutuqli o'yinini o'tkazish shartlarini hamda mazkur Ofertaga qo'shilgan Ishtirokchilarning unda ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

Yutuqli o'yin Tashkilotchisidan yoki Tashkilotchining agenti/dileri – «ASTER AUTO TRADE» MChJ XKdan LADA rusumli avtomobilni xarid qilish mazkur Ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish (akseptlash) hisoblanadi.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR:

1) «Yutuqli o'yin» – mazkur Oferta shartlariga muvofiq Tashkilotchidan va/yoki dilerdan «LADA» rusumli avtomobilni xarid qilgan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan sovrinlar o'yini;

2) «Ishtirokchi» – Tashkilotchidan va/yoki dilerdan LADA avtomobilini xarid qilgan har qanday jismoniy (18 yoshdan katta) yoki yuridik shaxs.

3) «Oferta» – buning uchun zarur bo'lgan barcha shartlarni ko'rsatgan holda mazkur Shartnomani tuzish to'g'risidagi taklif.

4) «Ofertani akseptlash» – Shartnomada ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali Ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish. Ofertani akseptlash Tomonlar o'rtasida tuzilgan Yutuqli o'yinda ishtirok etish to'g'risidagi Shartnomani yuzaga keltiradi.

5) «Internet-resurs» – Internetda faoliyat yurituvchi, noyob tarmoq manzili va (yoki) domen nomiga ega bo'lgan, apparat-dasturiy majmuada joylashtirilgan, matnli, grafik, audiovizual yoki boshqa ko'rinishda aks ettiriladigan <https://lada-auto.uz/> elektron axborot resursi.

6) «Sovrin» – «LADA» rusumli yangi avtomobil.

7) «VIN-kod» - bu ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan beriladigan avtomobilning noyob 17 xonali identifikatsiya raqami.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur ommaviy oferta yutuqli o'yin Tashkilotchisining taklifi bo'lib, u Tashkilotchidan yoki uning dileridan LADA avtomobilini xarid qilgan, 18 yoshga to'lgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxsga, shuningdek yuridik shaxsga qaratilgan.

2.2. Mazkur Oferta Akseptlangan paytdan e'tiboran, yutuqli o'yin Tashkilotchisi va Yutuqli o'yin Ishtirokchisi o'rtasidagi Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

2.3. LADA rusumli avtomobilni xarid qilgan Ishtirokchi avtomatik tarzda yutuqli o'yin ishtirokchisiga aylanadi.

2.4. Yutuqli o'yin Ishtirokchisi yutuqli o'yin Tashkilotchisini quyidagilarga ishontiradi:

- Shartnomani tuzish, uni bajarish va bekor qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ishonchli va dolzarb ma'lumotlarni, shu jumladan Shartnomani tuzayotgan shaxsning huquq va muomala layoqati to'g'risidagi, Shartnomani tuzayotgan shaxsning o'z manfaatlarini ifodalash vakolatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etganligi;
- unda tuzilayotgan Shartnomaga nisbatan har qanday muhim yanglishishlar, xususan, Shartnomaning muhim shartlariga nisbatan, bitimning mohiyatiga nisbatan, u Shartnoma tuzayotgan shaxsga nisbatan va h.k. mavjud emasligi;
- unda Shartnomani tuzishda o'zini yutuqli o'yin Tashkilotchisi tomonidan aldangan deb hisoblash uchun hech qanday asoslar mavjud emasligi.

2.5. Shartnomaning amaldagi tahriri Tashkilotchining <https://lada-auto.uz/> Internet-resursida joylashtirilgan va Akseptni amalga oshirishdan oldin Ishtirokchi tomonidan tanishib chiqilishi shart.

2.6. Avtomobillarni xarid qilish davri: 20.10.2025 y. - 31.12.2025 y.

2.7. Yutuqli o'yinni o'tkazish joyi va sanasi: Toshkent shahri, 20.12.2025 yil, soat 12:00 dan 14:00 gacha.

3. YUTUQLI O'YIN SHARTLARI VA UNDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

3.1. Yutuqli o'yinda mazkur Ofertani 2.6-bandida belgilangan davrda sotuvdagi 100 ta LADA Niva Legend va/yoki LADA Niva Travel avtomobillaridan birini xarid qilgan ishtirokchilar qatnashadi.

3.2. Mazkur Ofertani 2.7-bandida belgilangan joyda va sanada lototron yordamida xarid qilingan 100 ta avtomobil orasidan 5 (beshta) VIN-kod tasodifiy tanlab olinadi. Tashkilotchi/diler bilan tuzilgan avtomobil yetkazib berish Shartnomasiga asosan xarid qilingan avtomobilning VIN-kodi yutuqli o'yinda ishtirok etishning noyob raqami hisoblanadi va yutuqli o'yin ro'yxatiga qo'shiladi.

3.3. Avtomobillarni xarid qilish muddati tugagandan so'ng <https://lada-auto.uz/> saytida yutuqli o'yin haqida e'lon beriladi va yutuqli o'yinning o'zi translatsiya qilinadi, unda lototron yordamida tasodifiy tartibda yutuqli o'yin ishtirokchilari orasidan g'oliblar aniqlanadi.

3.4. Mustaqil kuzatuvchi tomonidan lototrandan tanlab olingan har bir VIN-kod uning egasiga yangi LADA avtomobilini (modeli Tashkilotchi tomonidan belgilanadi) hadya (mulk) sifatida olish huquqini beradi.

3.5. G'oliblarni aniqlash jarayoni ochiq tarzda, videoyozuv bilan o'tkaziladi. Yutuqli o'yin natijalari tanlov o'tkazilgandan keyin 3 ish kuni ichida Internet-resursda va/yoki Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi quyida ko'rsatilgan sahifalarida e'lon qilinadi:

- https://www.instagram.com/lada_uzbekistan/;
- https://t.me/lada_rasmiy;
- https://www.youtube.com/@LADA_Uzbekistan.

3.6. Yutuqli o'yinda ishtirok etish uchun, Yutuqli o'yinning potensial ishtirokchisi quyidagi harakatlarni amalga oshirishi lozim:

- ✓ LADA Niva Legend va/yoki LADA Niva Travel avtomobillarini Tashkilotchidan yoki dilerdan istalgan usulda xarid qilish: naqd pul mablag'lari evaziga, bank kartasi orqali, yutuqli o'yin Tashkilotchisi/dilerining hisob raqamiga pul mablag'larini naqd pulsiz o'tkazish orqali, kreditga, muddatli to'lovga, lizingga;
- ✓ Mazkur Ofera matni, shuningdek Tashkilotchining Internet-resursidagi Yutuqli o'yinga doir mavjud materiallar bilan tanishib chiqish.

4. YUTUQLI O'YIN SOVRININI OLIISH TARTIBI VA SHARTLARI

4.1. Tashkilotchi Yutuqli o'yin Ishtirokchisi tomonidan mazkur Shartnoma shartlariga rioya qilinmaganligi holati aniqlangan taqdirda Sovrinni berishdan bosh tortish huquqiga ega.

4.2. Sovrinni olish chog'ida, Sovrinni qabul qiluvchi Ishtirokchi jismoniy shaxs uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, yuridik shaxs uchun esa Sovrinni olish uchun rahbar tomonidan imzo va muhr bilan berilgan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomani taqdim etishi shart. Shuningdek, Tashkilotchi tomonidan taqdim etiladigan tegishli Sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjatni (keyingi o'rinlarda – «Sovrinni olganlikni tasdiqlovchi Hujjat») to'ldirish talab etiladi.

4.3. Ishtirokchi Sovrinni olganlikni tasdiqlovchi Hujjatni to'ldirishdan bosh tortgan taqdirda, shuningdek, to'liq bo'lmagan ma'lumot ko'rsatilgan taqdirda va/yoki barcha zarur ma'lumotlar taqdim

etilmagan yoki o'z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda, bunday Ishtirokchi yutgan Sovrin talab qilinmagan deb hisoblanadi. Ishtirokchi Sovrinni olgan va Sovrinni olganlikni tasdiqlovchi Hujjatni imzolagan paytdan boshlab, u ko'rsatilgan Sovrinning buzilishi va yo'qolishi xavfini o'z zimmasiga oladi.

4.4. Yutuqli o'yin Ishtirokchisi mazkur Shartnoma shartlariga, shu jumladan LADA avtomobillari yutuqli o'yinini belgilangan muddatlarda o'tkazish shartlariga rioya qilishi, yutuqli o'yinda ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, jumladan, Internet, telefon uchun xarajatlarni o'z zimmasiga olishi, shuningdek mazkur Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi quyidagilarga haqli emas:

5.1.1. Tashkilotchining rozilgisiz yutuqli o'yinni videoga olishdan foydalanishga;

5.1.2. Tashkilotchining saytida e'lon qilingan yoki boshqa ishtirokchilar tomonidan Yutuqli o'yinda ishtirok etish doirasida e'lon qilingan materiallardan har qanday usulda foydalanishga (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, nusxa ko'chirish, nashr etish, tarqatish, jamoatchilikka ma'lum qilish va boshqalar).

5.2. Ishtirokchi Tashkilotchining <https://lada-auto.uz/> Internet-resursida Yutuqli o'yin shartlari bilan mustaqil ravishda va o'z vaqtida tanishib chiqishga majburdir.

5.3. Ishtirokchi Tashkilotchidan olingan ma'lumotlardan Tashkilotchi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan usullarda foydalanmaslikka majburdir.

5.4. Ishtirokchi Tashkilotchini quyidagilarga ishonitiradi va kafolatlaydi:

- mazkur Shartnomani ixtiyoriy ravishda tuzayotganligi, shu bilan birga Ishtirokchi mazkur Shartnoma shartlari bilan to'liq tanishib chiqqan, mazkur Shartnomaning predmetini to'liq tushunadi, tuzilgan Shartnomaga nisbatan o'z harakatlarining ahamiyati va oqibatlarini to'liq tushunadi hamda axborot materiallaridan foydalanishda, Yutuqli o'yinda ishtirok etishda va topshiriqni bajarishda salbiy oqibatlar bo'lmashligiga ishonadi.

5.5. Yutuqli o'yin Tashkilotchisi mazkur Shartnomada bevosita nazarda tutilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi va, xususan, quyidagilarga majburdir:

- agar bu mazkur Shartnoma shartlaridan va/yoki ommaviy yutuqli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikdan bevosita kelib chiqsa, harakatlarni amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan tiyilish.

5.6. Yutuqli o'yin Tashkilotchisi quyidagi huquqlarga ega:

- ushbu Shartnomaning shartlari va muddatlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish;
- o'z xohishiga ko'ra (yutuqli o'yinning shaffofligi uchun) mustaqil kuzatuvchilarni, blogerlarni yoki OAV vakillarini jalb qilish;
- Ishtirokchi tomonidan shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali Shartnoma tuzilganida yoxud mazkur Shartnoma amal qilishi davrida taqdim etilgan Ishtirokchining har qanday shaxsiy ma'lumotlarini Shartnomani bajarish maqsadida har qanday usulda qayta ishlash.

6. OFERTA SHARTLARINING AMAL QILISH MUDDATI VA O'ZGARTIRILISHI

6.1. Oferta ushbu Shartnoma Internet tarmog'ida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi va Oferta chaqirib olingunga qadar amal qiladi.

6.2. Ishtirokchi Ofertaga kiritilgan o'zgartirishlar Ishtirokchi va Tashkilotchi o'rtasida tuzilgan va amalda bo'lgan Shartnomaga ham ushbu o'zgartirishlar kiritilishini qabul qiladi va tan oladi, hamda Shartnomaga kiritilgan ushbu o'zgartirishlar Ofertaga kiritilgan bunday o'zgartirishlar bilan bir vaqtda kuchga kiradi.

6.3. Agar Tashkilotchi Shartnomaning amal qilish muddati davomida Ofertani chaqirib olsa, Shartnoma chaqirib olingan paytdan boshlab bekor qilingan hisoblanadi.

6.4. Tashkilotchi bir tomonlama tartibda Shartnomaning mazmunini faqat o'zgargan qonunchilikka muvofiqlashtirish maqsadida o'zgartirishga haqlidir. Tashkilotchi yuqorida ko'rsatilgan o'zgartirishlarni Ishtirokchini oldindan xabardor qilmasdan kiritishi mumkin. Shartnoma mazmuniga kiritilgan o'zgartirishlar Shartnomaning doimiy joylashuv manzilida yangilangan Shartnoma matni ko'rinishida e'lon qilingan paytdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

7. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

7.1. Agar majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligi yengib bo'lmaydigan kuch (Fors-major) holatlari, masalan: tabiiy ofatlar, yong'inlar, harbiy harakatlar, inqiloblar, ish tashlashlar, Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi qonunchilikdagi o'zgarishlar tufayli imkonsiz bo'lsa, Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi, lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

7.2. Shartnoma bo'yicha Tomon harakatni bajarishi lozim bo'lgan vaqt oralig'i, u Fors-major tufayli ularni bajara olmagan muddatga uzaytiriladi, shuningdek, agar bu oraliqda harakat yoki xizmatga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolsa.

7.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, bunday holatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab kechiktirmay 3 (uch) ish kuni ichida boshqa Tomonga yozma shaklda xabar beradi. Bunday holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida xabar bermaslik yoki o'z vaqtida xabar bermaslik xabar bermaganlik yoki o'z vaqtida xabar bermaganlikka yo'l qo'ygan Tomonni majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qiluvchi asos sifatida ushbu holatlarga tayanib murojaat qilish huquqidan mahrum qiladi.

7.4. Fors-majorning amal qilishi vakolatli organlarning tegishli hujjatlari bilan tasdiqlanishi lozim.

7.5. Agar Fors-major 3 (uch) oydan ortiq muddat ketma-ket davom etsa, Tomonlardan har biri bu haqda boshqa Tomonni bunday bekor qilish sanasidan kamida 14 (o'n to'rt) kalendar kun oldin xabardor qilgan holda, mazkur Shartnomani bekor qilishga haqlidir. Bunday holda Tomonlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va boshqa masalalarni hal qilish uchun komissiya tuzadilar.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Shartnoma yuzasidan yoki unga aloqador holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar bo'yicha Tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar.

8.2. Agar Tomonlar murosaga erisha olmasalar, nizoni hal qilish uchun, ulardan birining tegishli yozma e'tirozni yuborgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni o'tgach, kelishmovchiliklarni tartibga solish maqsadida Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda Javobgar joylashgan yerdagi sudga murojaat qilish huquqiga ega.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Tashkilotchi va Ishtirokchi mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan yoki bajarmagan Tomon, boshqa Tomonning talabi bilan boshqa Tomonga yetkazilgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan zararni qoplashi shart.

9.3. Yutuqli o'yin Tashkilotchisi quyidagilar uchun javobgar emas:

9.3.1. Yutuqli o'yin Ishtirokchisining Tashkilotchi tomonidan Tashkilotchining <https://lada-auto.uz/> Internet-resursida joylashtirilgan Yutuqli o'yin g'oliblari ro'yxati bilan tanishish imkoniyati yo'qligi uchun.

9.3.2. Yutuqli o'yin Ishtirokchisi tomonidan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmaganligi (o'z vaqtida bajarilmaganligi) uchun;

9.3.3. Yutuqli o'yin natijalari e'lon qilingan paytdan boshlab bir oy davomida g'olib uni talab qilmagan yoki undan voz kechgan taqdirda, Yutuqli o'yin g'olibi tomonidan Sovrinning olinmasligi uchun.

9.4. Yutuqli o'yinda ishtirok etish orqali, Ishtirokchi mazkur Shartnoma bilan to'liq tanishib chiqqanligini va u bilan rozi ekanligini tasdiqlaydi, xususan, ammo quyidagilar bilan cheklanmagan holda, o'zining roziligini tasdiqlaydi:

9.4.1. Yutuqli o'yin g'olibini mazkur Shartnomada nazarda tutilgan tartibda aniqlashga;

9.4.2. Yutuqli o'yin o'tkazilishi davomida Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi munosabati bilan uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilotchiga nisbatan har qanday e'tirozlar bo'lgan taqdirda, Ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil ravishda hal qilish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

9.5. Yutuqli o'yin Tashkilotchisi quyidagilar uchun javobgar emas:

9.5.1. Tashkilotchi tomonidan Shartnoma shartlarining bajarilmasligiga olib kelgan texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining uzilishi/buzilishi, dasturiy ta'minotning ishdan chiqishi va h.k.) yuzaga kelgan taqdirda;

9.5.2. Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlari haqidagi ma'lumotlar ulardan foydalanish vaqtida aloqa kanallarini tinglash yoki tutib olish natijasida boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolsa.

10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalar bo'yicha Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga amal qiladilar.

10.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha akseptni amalga oshirish Ishtirokchining taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarini Tashkilotchi tomonidan qayta ishlashga roziligini bildiradi.

10.3. Tashkilotchi bir tomonlama tartibda mazkur Shartnoma shartlarini o'zgartirishga haqli bo'lib, uning dolzarb matni Tashkilotchining Internet-resursida joylashtiriladi.

Tashkilotchi rekvizitlari:

«TECHNICS SERVICES POWER» MChJ

Manzil: Toshkent sh., Yangiheyot tumani, Binokor MFY, Sholikor ko'chasi

h/r: 20208000205527782001

«ASAKABANK» AJ ATB Avtotransport BXMda

MFO: 00873

STIR: 309546570

QQS raqami: 326120215117